



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 1 (03)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 1-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

1

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Tursunov A.M. O‘zbekiston elektroenergetikasini rivojlantirishda innovatsion texnologiyalar va “Yashil” energetikaning o‘rni.....	7
Abdulazizov A.A. Raqamlashtirish sharoitida energetika sanoati korxonalarining barqaror rivojlanish omillari.....	11
Jurayev D.A. Электротехника sanoati korxonalarida ishlab chiqarish jarayoniga ta’sir etuvchi omillar.....	15
Suyarov Sh.S. Konchilik sanoati korxonalarida resurs salohiyatidan samarali foydalanish.....	18
Кариева Л.С. Энергетика sanoati korxonalarining ishlab chiqarish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	21
Axtamov A.U. Aksionerlik jamiyatlarida korporativ boshqaruvning moliyaviy samaradorlikka ta’siri xususida.....	25
Гафуров А.Б. Значение цифровой трансформации управления образованием в высших учебных заведениях.....	29
Абиткариев А.М. Значение развития человеческого капитала и стимулирования трудовой деятельности.....	33
Abdullayev D.G’. Intellektual kapital: tushunchasi, mazmuni va taraqqiyoti.....	37
Abdullayev M.G’. Xodimlarning professional rivojlanishini baholash usullari.....	42
Isakov A.Y. Tadbirkorlik sub’yektlarida raqobat ustunliklarini shakllantirishning asosiy omillari.....	46
Ashurova G.N. Charm poyabzal sanoatining xom-ashyo ishlab chiqarish va uning zahira resurslari.....	52
Yo‘ldosheva M.F. O‘zbekistonda davlat budjeti daromad va xarajatlarning tarkibi va ularning statistik tahlili.....	56
Қулматов А.А. Кичик бизнес ва хусусий тadbirkorlikni mintaqalarda qo‘llab-quvvatlash mexanizmlari.....	61
Babayev A.N. Yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va institutsional mexanizmlari.....	67
Sharipov H.A. Oilaviy tadbirkorlikning iqtisodiy mazmuni va xo‘jalik yuritish shakli sifatidagi o‘ziga xos belgilari.....	71
Турдиева Я. Анализ коррупционных рисков в системе гчп в сфере дошкольного образования.....	75
Vaxidov A.K. Personalni tanlash va ishga yollashning xorijiy tajribalari.....	78
Gaymatova D.G’. Biznes faoliyatini samaradorligini oshirishda iqtisodiy-matematik tahlil.....	83
Pardayev E.E. Xizmat ko‘rsatish jarayonlarini boshqarishda raqamli texnologiyalarning iqtisodiy samaradorligi.....	87
Ibragimova S.A., Muradov Sh.D. Aksiyadorlik jamiyatlari boshqaruvida innovatsion usullarni joriy etishning zamonaviy tendensiyalari.....	91
Адилов Б.Б. Социальные услуги в Республике Узбекистан: современное состояние, проблемы и перспективы развития.....	96
Yoqubova Z.T. Tarkibiy o‘zgarishlar va iqtisodiy o‘rta o‘rtasidagi mutanosiblikni ta’minlashning konseptual asoslari.....	101
Saidaxmedova N.I., Aripov A.S. Oliy ta’lim tashkilotlari boshqaruv tizimini shakllantirishda iqtisodiy nazariyalarning metodologik ahamiyati.....	106
Abduvoyeva X.Sh. O‘zbekistonda davlat ijtimoiy xarajatlarning aholi farovonligiga ta’sirining korrelyatsion–regression tahlili.....	111
Умаров А.А. Хорижий тажрибаларга асосан янги банк хизматларини жорий этилишини ривожлантириш натижасида тижорат банкларини хизматлар жозибадорлигини ошириш... Shoraximova Z.N. «O‘zbekistonda sug‘urta kompaniyalarida qayta sug‘urta orqali risklarni diversifikatsiya qilish samaradorligini baholash».....	116
Умурзакова З.С. Меҳнат омилидан фойдаланишни такомиллаштириш йўллари.....	126
Karimov X.O. Kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish orqali aholi daromadlarini oshirishning institutsional strategiyalari.....	130

Aхунов М.А. Корхона иқтисодий самарадорлигини таъминлашнинг асосий йўналишлари.	134
Ахмаджонов С.С. Корхона асосий фондларидан фойдаланишни яхшилашнинг ижтимоий-иқтисодий самараси.....	138
Abdullayeva Sh.А. Veb-texnologiyaga asoslangan bir turdagi tovar zaxiralari boshqarish va amaliy masalalarni optimallashtirish.....	142
Дусанов С.М. Таълим тизимида рақобат муҳитини ривожлантиришнинг молиявий ресурслардан фойдаланиш аҳамияти.....	146
Мамаражобов А.С. Tadbirkorlik subyektlarining tashqi savdo faoliyati natijalarini reytinglash va undan foydalanish masalalari.....	151
Nigmatova D.Z., Amanov E.G’. Kadrlar qo‘nimsizligining korxonalar samaradorligiga ta’siri.....	157
Ikromjonova M.U. To‘qimachilik korxonalarida mahsulot tannarxini kalkulyatsiya qilishning iqtisodiy mohiyati va tarkibi.....	160
Madaminjonov A.O. To‘qimachilik korxonalarida tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish va sotish hisobini rivojlantirishning iqtisodiy jihatlari.....	164
Jamoliddinova S.S. Ustama xarajatlarning iqtisodiy mohiyati, tarkibi va ishlab chiqarish tannarxini shakllantirishdagi o‘rni.....	168
Akbaraliyev A.E. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya siyosati va investitsiya dasturlarining iqtisodiy rivojlanishdagi o‘rni.....	173
Эрматова С.И. Учет обязательств в хозяйствующих субъектах.....	178
Maxsudov Sh.S. To‘qimachilik sanoati korxonalar faoliyati samaradorlikni monitoring qilishning ahamiyati.....	181
Boyev X.I., Adilov B.B. Mahalliy byudjetlar barqarorligi — ijtimoiy himoya tizimini mustahkamlash omili sifatida.....	186
Raxmonova N.A. Biznes ta’limida raqamli transformatsiya va innovatsion o‘qitish strategiyalari.....	190
Якубова Д.М. Применение экономико-математических моделей в промышленном производстве.....	194
Ibrohimov N.B., Jabbarov K.Y. Aylanma iqtisodiyotga o‘tishning fundamental asoslari: chiziqli modelning cheklovlari va barqaror rivojlanish imkoniyatlari.....	198
Matyoqubova D.O. Biznes tuzilmalarining innovatsion rivojlanishini diversifikatsiya qilish.....	202
Rahmatullayeva F. Andijon viloyatida yoshlar tadbirkorligi rivojlanishining tarmoqlararo diversifikatsiyasi va iqtisodiy faollikka ta’siri.....	206
Mamajonov L.A. Mahalliy byudjet daromadlarining barqarorligini ta’minlash yo‘nalishlari.....	209
Давруков Ф.У. Инновационные механизмы демонополизации в условиях цифровой трансформации экономики Республики Узбекистан.....	213
Убайдуллаева Н.Р. Роль перестрахования в управлении катастрофическими рисками и обеспечении финансовой устойчивости страховых компаний.....	222
Abdullayev A.A. Tijorat banklari orqali kichik biznesni moliyalashtirish samaradorligini oshirish mexanizmlari.....	227
Alimov O.N. O‘zbekiston Respublikasida jamg‘arib boriladigan pensiya ta’minoti tizimining huquqiy asoslari va rivojlanish istiqbollari.....	230
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishda va boshqaruv mexanizmi bo‘yicha institutsional asoslari.....	235
Mamajonova N.A. Innovatsion rivojlanish sharoitida iqtisodiy tizimlarni boshqarish nazariyalarining transformatsiyasi hamda uning evolyutsiyasi.....	239
Sanaqulova A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish: muammolar va imkoniyatlar.....	243
Nazarov N.N. Hududiy barqaror rivojlantirish strategiyasini shakllantirishning metodologik asoslarini takomillashtirish.....	247
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarida ishlab chiqarish hajminiga oid qarashlar va uning mohiyati.....	251
Sanaqulova A., Ochilova M. Bugungi kunda raqamli iqtisodiyot.....	254
Umarov I.Y. Xalqaro darajada sifat menejmenti va ISO standartlarini rivojlanish tendensiyalari tahlili....	257

10. Федеральная налоговая служба. Единый реестр субъектов малого и среднего предпринимательства в Российской Федерации. URL: <https://rmsp.nalog.ru/index.html> (дата обращения: 10.07.2023).
11. Schumpeter J. A. *The Theory of Economic Development*. — Harvard University Press, 1934.
12. Acs Z., Audretsch D. *Innovation and Small Firms*. — MIT Press, 1990.
13. OECD. *SME and Entrepreneurship Policy*. — Paris, 2021.
14. World Bank. *Small and Medium Enterprises Finance: Improving Access to Finance*. — Washington DC, 2020.
15. EBRD. *Advice for Small Business Programme*. — London, 2022.
16. IFC. *Financing Small Businesses in Emerging Markets*. — Washington DC, 2021.

UDK:331.53

YOSHLAR BANDLIGINI TA’MINLASHNI BOSHQARISHNING NAZARIY-METODOLOGIK ASOSLARI VA INSTITUTIONAL MEKANIZMLARI

ТЕОРЕТИКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ИНСТИТУЦИОНАЛЬНЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЗАНЯТОСТЬЮ МОЛОДЕЖИ

THEORETICAL AND METHODOLOGICAL FOUNDATIONS AND INSTITUTIONAL MECHANISMS OF YOUTH EMPLOYMENT MANAGEMENT

Babayev Anvarjon Nematjonovich, Mirzo Ulug‘bek tumani Oqibat mahalla fuqarolar yig‘inida tadbirkorlikni rivojlantirish, aholi bandligini ta’minlash va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha hokim yordamchisi
«Geologiya fanlari universiteti»da o‘qituvchi-assistent

Annotatsiya

Ushbu maqolada yoshlar bandligini ta’minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslari va ayrim institutsional mexanizmlari tahlil qilinadi. Tadqiqot O‘zbekiston qonunchiligi, milliy ilmiy adabiyotlar hamda xorijiy tadqiqotlar tahliliga asoslanadi. Ishda yoshlar bandligini boshqarishda tizimli va institutsional yondashuvlarning ahamiyati ochib berilib, mavjud boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish yo‘nalishlari ilmiy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: yoshlar bandligi, bandlikni boshqarish, institutsional mexanizm, davlat siyosati, mehnat bozori, boshqaruv yondashuvlari, tizimli yondashuv, bandlik siyosati

В статье анализируются теоретико-методологические основы и отдельные институциональные механизмы управления занятостью молодежи. Исследование основано на изучении законодательства Узбекистана, национальных научных источников и зарубежных публикаций. Раскрывается значение системного и институционального подходов в управлении молодежной занятостью и определяются направления совершенствования действующих механизмов государственной политики в данной сфере.

Ключевые слова: занятость молодежи, управление занятостью, институциональный механизм, государственная политика, рынок труда, управленческие подходы, системный подход, политика занятости

This article examines the theoretical and methodological foundations and selected institutional mechanisms of youth employment management. The study is based on the analysis of Uzbek legislation, national academic literature, and international research sources. The paper highlights the role of systemic and institutional approaches in youth employment governance and identifies key directions for improving existing management mechanisms in the field of youth employment policy.

Keywords: youth employment, employment management, institutional mechanism, public policy, labor market, management approaches, systemic approach, employment policy

So‘nggi yillarda yoshlar bandligini ta‘minlash masalasi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning markaziy yo‘nalishlaridan biriga aylanib, davlat siyosati, mehnat bozori va ijtimoiy barqarorlik o‘rtasidagi muhim bog‘lovchi tizim sifatida namoyon bo‘lmoqda. Yoshlar jamiyatning eng faol va dinamik qatlami bo‘lib, ularning mehnat bozoriga integratsiyasi nafaqat iqtisodiy o‘shish, balki ijtimoiy barqarorlik, kambag‘allikni kamaytirish, ijtimoiy tenglik va inson kapitalini rivojlantirish jarayonlari bilan bevosita bog‘liqdir. Shu sababli yoshlar bandligi masalasi alohida ijtimoiy muammo sifatida emas, balki kompleks ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida ko‘rib chiqilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasida bandlik masalasi normativ-huquqiy darajada mustahkamlangan bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksida mehnat qilish huquqi, ishga joylashish erkinligi va mehnat bozorida teng imkoniyatlar asosiy tamoyillar sifatida belgilangan [1]. Mehnat kodeksi yoshlar mehnatini muhofaza qilish, ularning bandligini ta‘minlash hamda mehnat bozoriga kirish imkoniyatlarini kengaytirish bilan bog‘liq normalarni o‘z ichiga oladi. Shu bilan birga, “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun yoshlar bandligini davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilab, yoshlar uchun ta‘lim, mehnat, tadbirkorlik va bandlik sohalarida sharoit yaratishni davlatning muhim vazifasi sifatida e‘tirof etadi [2]. Yoshlar bandligini ta‘minlashga oid boshqaruv mexanizmlari davlat qarorlari va institutsional tuzilmalar orqali ham mustahkamlanmoqda. Xususan, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi 550-sonli qarori bilan Yoshlar ishlari agentligi faoliyatining huquqiy asoslari belgilangan bo‘lib, unda yoshlar bandligini ta‘minlash, kasb-hunar o‘rgatish, tadbirkorlikni rivojlantirish va mehnat bozoriga moslashuv mexanizmlari institutsional darajada mustahkamlangan [3]. Shuningdek, yoshlar bandligini qo‘llab-quvvatlashga qaratilgan davlat dasturlari va sektorlararo hamkorlik mexanizmlari orqali bandlik siyosati real boshqaruv jarayoniga aylantirilmoqda.

Ilmiy adabiyotlarda yoshlar bandligi asosan ijtimoiy-iqtisodiy muammo, mehnat bozori segmenti yoki ijtimoiy siyosat obyekti sifatida talqin qilinadi. Biroq bandlikni aynan boshqaruv obyekti sifatida ko‘rib chiqish, ya‘ni yoshlar bandligini ta‘minlash jarayonini alohida boshqaruv tizimi, institutlararo munosabatlar, davlat siyosati mexanizmlari va boshqaruv yondashuvlari orqali tushuntirishga qaratilgan nazariy yondashuvlar nisbatan kam uchraydi. Bu holat yoshlar bandligini ta‘minlash muammosini faqat ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida emas, balki ilmiy boshqaruv kategoriyasi sifatida o‘rganish zaruratini yuzaga keltiradi.

Shu nuqtai nazardan, yoshlar bandligini ta‘minlashni boshqarish masalasini nazariy-metodologik asoslar doirasida tahlil qilish alohida ilmiy ahamiyat kasb etadi. Mazkur maqolaning maqsadi yoshlar bandligini ta‘minlashni boshqarishning nazariy-metodologik asoslarini tahlil qilish hamda mavjud institutsional mexanizmlarning ilmiy talqinini berishdan iborat.

Yoshlar bandligini ta‘minlash masalasi zamonaviy ilmiy tadqiqotlarda ko‘p qirrali ijtimoiy-iqtisodiy hodisa sifatida talqin qilinib, turli nazariy maktablar va ilmiy yondashuvlar doirasida o‘rganib kelinmoqda. Ilmiy adabiyotlarda bu masala mehnat bozori nazariyasi, ijtimoiy siyosat, inson kapitali konsepsiyasi, bandlik iqtisodiyoti va davlat boshqaruvi nazariyalari bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi.

O‘zbekistonlik olimlarning tadqiqotlarida bandlik muammosi asosan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish, mehnat bozori samaradorligi va inson kapitalini rivojlantirish kontekstida o‘rganiladi. Xususan, A.X. Vahobov va Sh.X. Teshabayev o‘z tadqiqotlarida bandlik masalasini makroiqtisodiy barqarorlik va iqtisodiy o‘shish omili sifatida talqin qilib, mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarining institutsional ahamiyatini asoslab beradi [4]. Ularning ishlari bandlikni iqtisodiy siyosatning markaziy elementi sifatida ko‘rib chiqadi, biroq yoshlar bandligi alohida boshqaruv obyekti sifatida yetarli darajada ajratilmagan.

Q.X. Abdurahmonov mehnat iqtisodiyoti va bandlik nazariyasiga oid tadqiqotlarida bandlikni ijtimoiy-iqtisodiy tizimning tarkibiy elementi sifatida tahlil qilib, mehnat resurslarini boshqarish, bandlik siyosati va mehnat bozorini tartibga solish mexanizmlarini tizimli yondashuv asosida

izohlaydi [5]. Uning ishlarida bandlikni boshqarish tushunchasi mavjud bo‘lsa-da, yoshlar bandligini alohida boshqaruv modeli sifatida ajratish masalasi chuqur konseptual darajada ishlab chiqilmagan.

B.Yu.Xodiev va Sh.Sh.Shodmonov iqtisodiy rivojlanish va bandlik o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tahlil qilib, davlatning bandlik siyosatini institutsional mexanizm sifatida ko‘rsatadi [6]. Ularning tadqiqotlarida bandlik masalasi davlat iqtisodiy siyosatining funksional yo‘nalishi sifatida yoritiladi, biroq boshqaruv mexanizmlarining nazariy modeli alohida tizim sifatida konseptuallashtirilmaydi.

MDH mamlakatlari olimlarining ishlarida yoshlar bandligi masalasi ko‘proq mehnat bozorining strukturaviy muammolari va davlat siyosati doirasida o‘rganiladi. A.I. Rofe bandlik va mehnat bozori nazariyasiga oid ishlanmalarida bandlikni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik omili sifatida tahlil qiladi [7]. Uning yondashuvida bandlik tizim sifatida ko‘rib chiqiladi, biroq yoshlar bandligi alohida boshqaruv modeli sifatida ajratilmaydi. V.N. Bobkov va N.A. Volgin mehnat bozorini tartibga solish va bandlik siyosatini davlat boshqaruvi tizimining tarkibiy qismi sifatida talqin qilib, bandlikni boshqarishning institutsional mexanizmlarini ochib beradi [8]. Ularning ishlari bandlikni boshqaruv kategoriyasi sifatida izohlashga yaqin bo‘lsa-da, yoshlar bandligi masalasiga alohida tizimli yondashuv shakllantirilmagan. G.A. Gimpelson va R.I. Kapelyushnikov mehnat bozori transformatsiyasi, yoshlar bandligi va strukturaviy o‘zgarishlar masalalarini iqtisodiy modernizatsiya kontekstida tahlil qiladi. Ushbu tadqiqotlar yoshlar bandligini ijtimoiy-iqtisodiy jarayon sifatida ochib beradi, biroq uni boshqaruv tizimi sifatida konseptual asoslashga yetarli darajada e‘tibor qaratilmaydi. [9]

Xorijiy ilmiy adabiyotlarda yoshlar bandligi masalasi inson kapitali nazariyasi, ijtimoiy integratsiya, mehnat bozori institutlari va davlat siyosati doirasida chuqur tahlil qilinadi. G. Beckerning inson kapitali nazariyasi yoshlar bandligini iqtisodiy rivojlanishning strategik omili sifatida tushuntirishga metodologik asos yaratadi [10]. Ushbu yondashuv yoshlarni mehnat bozori subyekti emas, balki rivojlanish resursi sifatida talqin qiladi. J. Heckman tadqiqotlarida yoshlar bandligi ta‘lim tizimi, malaka shakllanishi va ijtimoiy tenglik bilan uzviy bog‘liq holda tahlil qilinadi [11]. U yoshlar bandligini faqat mehnat bozori muammosi emas, balki ijtimoiy investitsiya modeli sifatida talqin qiladi. OECD va ILO hisobotlarida yoshlar bandligi masalasi davlat siyosati, institutlararo hamkorlik va boshqaruv mexanizmlari orqali yoritiladi [12], [13]. Ushbu manbalarda yoshlar bandligini ta‘minlash uchun kompleks siyosat modellari taklif etiladi, biroq ular ko‘proq amaliy siyosiy model sifatida shakllantirilgan bo‘lib, nazariy boshqaruv modeli sifatida konseptuallashtirilmagan.

Ushbu tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, yoshlar bandligini ta‘minlash masalasi zamonaviy sharoitda faqat ijtimoiy-iqtisodiy muammo sifatida emas, balki alohida boshqaruv obyekti sifatida ko‘rib chiqilishi zarur. Normativ-huquqiy baza mavjudligi (Mehnat kodeksi, yoshlar siyosati to‘g‘risidagi qonun, hukumat qarorlari) yoshlar bandligini ta‘minlashning huquqiy asoslari shakllanganini ko‘rsatadi [1], [2], [3]. Biroq ushbu hujjatlar doirasida belgilangan chora-tadbirlar ko‘proq alohida yo‘nalishlar va dasturlar ko‘rinishida amalga oshirilmoqda, ularning yagona tizimli boshqaruv mexanizmi sifatida integratsiyalashuvi yetarli darajada shakllanmagan.

(a) bandlikni boshqarish — ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida;

(b) yoshlar bandligi — boshqaruv obyekti sifatida;

(c) davlat siyosati — boshqaruv subyekti sifatida;

(d) institutsional mexanizmlar — boshqaruv vositasi sifatida.

Bu yondashuv yoshlar bandligini alohida chora-tadbirlar yig‘indisi emas, balki yaxlit boshqaruv tizimi sifatida tushunishga imkon beradi. Mazkur tizimda davlat institutlari, mehnat bozori mexanizmlari, ta‘lim tizimi, ijtimoiy sektor va hududiy boshqaruv organlari o‘zaro bog‘liq holda faoliyat yurituvchi yagona boshqaruv arxitekturasi sifatida namoyon bo‘ladi [8], [12], [13].

Shu asosda quyidagi ilmiy-amaliy takliflar ilgari suriladi:

1. Yoshlar bandligini boshqarish konsepsiyasini alohida ilmiy kategoriya sifatida shakllantirish. Yoshlar bandligini faqat bandlik siyosatining tarkibiy qismi sifatida emas, balki mustaqil boshqaruv yo‘nalishi sifatida konseptuallashtirish zarur. Bu yondashuv bandlikni ijtimoiy muammo emas, balki boshqariladigan tizim sifatida talqin qilish imkonini beradi [5], [8].

2. Tizimli boshqaruv modelini joriy etish. Yoshlar bandligini ta’minlash mexanizmlari alohida dasturlar darajasida emas, balki yagona boshqaruv modeli doirasida integratsiyalashgan tizim sifatida shakllantirilishi lozim. Bu model normativ-huquqiy, institutsional, tashkiliy va iqtisodiy mexanizmlarni yagona boshqaruv tizimiga birlashtirishi kerak [7], [12].

3. Institutsional mexanizmlarni funksional integratsiyalash. Davlat organlari, yoshlar siyosati institutlari, bandlik xizmatlari, ta’lim muassasalari va xususiy sektor o’rtasidagi aloqalarni sektorlararo boshqaruv modeli asosida muvofiqlashtirish zarur. Bu yondashuv fragmentarlikni kamaytirib, boshqaruv samaradorligini oshiradi [3], [8].

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi. (2023). O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi (2023-yil 30-apreldagi yangi tahrir).
2. O‘zbekiston Respublikasi. (2016). “Yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risida”gi Qonun (ZRU–406-son, 2016-yil 14-sentabr). Toshkent: O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi.
3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 11-sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi 550-sonli qarori.
4. Vahobov, A. X., & Teshabayev, Sh. X. (2015). Iqtisodiy rivojlanish va bandlik masalalari. Toshkent: Iqtisodiyot nashriyoti.
5. Abdurahmonov, Q. X. (2019). Mehnat iqtisodiyoti va bandlik. Toshkent: Fan va texnologiya.
6. Xodiev, B. Yu., & Shodmonov, Sh. Sh. (2018). Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi. Toshkent: Iqtisodiyot.
7. Рофе, А. И. (2017). Экономика труда. Москва: Юрайт.
8. Бобков, В. Н., & Волгин, Н. А. (2016). Рынок труда и государственная политика занятости. Москва: Экономика.
9. Гимпельсон, В. Е., & Капелюшников, Р. И. (2015). Российский рынок труда: институты и трансформации. Москва: НИУ ВШЭ.
10. Becker, G. S. (1993). Human capital: A theoretical and empirical analysis, with special reference to education (3rd ed.).
11. Heckman, J. J. (2006). Skill formation and the economics of investing in disadvantaged children. *Science*, 312(5782), 1900–1902. <https://doi.org/10.1126/science.1128898>
12. OECD. (2020). Youth employment outlook 2020. Paris: OECD Publishing. https://doi.org/10.1787/empl_outlook-2020-en
13. International Labour Organization. (2020). Global employment trends for youth 2020: Technology and the future of jobs. Geneva: ILO.